LINGVOKULTUROLOGIYA MAKTABLARI VA ULARNING VAKILLARI

Bozorboyeva Şahrizoda

Şarof Raşidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Lingvistika: özbek tili

ilkhamjanovnashahrizoda@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada XX asrning 90-yillarida Moskvada şakllangan tört lingvokulturologik maktab, ya'ni Yu.S. Stepanov, N.D. Arutyunova, V.N. Teliya hamda V.V. Vorobyov va V.M. Şaklein maktablarining nazariy asoslari qiyosiy jihatdan örganiladi. Maktablarning tadqiqot obyekti, yondaşuv aspekti (diaxron yoki sinxron), tadqiqotçi pozitsiyasi va metodologik tayançi aniqlanadi. Tahlil özbek, rus va ingliz tillari misollari bilan asoslanadi, özbek lingvokulturologiyasining Moskva maktablari bilan aloqasi körsatiladi.

Kalit sözlar: lingvokulturologiya, lingvokulturologik maktab, konsept, madaniyat konstantasi, frazeologizm, lingvokulturema, diaxron va sinxron yondaşuv, ekvivalentsiz leksika.

Аннотация. В статье сопоставляются теоретические основы четырёх лингвокультурологических школ, сложившихся в Москве в 1990-е годы: школ Ю.С. Степанова, Н.Д. Арутюновой, В.Н. Телия, а также В.В. Воробьёва и В.М. Шаклеина. Определяются объект исследования, аспект изучения языка (диахронический или синхронический), позиция исследователя и методологическая основа каждой школы. Анализ подкрепляется примерами из узбекского, русского и английского языков; показана связь узбекской лингвокультурологии с московскими школами.

Ключевые слова: лингвокультурология, лингвокультурологическая школа, концепт, константа культуры, фразеологизм, лингвокультурема, диахронический и синхронический подходы, безэквивалентная лексика.

Abstract. The article compares the theoretical foundations of the four linguocultural schools that took shape in Moscow in the 1990s: the schools of Yu.S. Stepanov, N.D. Arutyunova, V.N. Teliya, and V.V. Vorobyov together with V.M. Shaklein. The paper identifies each school's object of study, approach (diachronic or synchronic), researcher's position and methodological basis. The analysis is supported by examples from Uzbek, Russian and English, and the links between Uzbek linguoculturology and the Moscow schools are shown.

Keywords: linguoculturology, linguocultural school, concept, cultural constant, phraseological unit, linguoculturema, diachronic and synchronic approaches, non-equivalent vocabulary.

KIRIŞ

Til bilan madaniyat örtasidagi boğliqlik haqidagi fikrlar tilşunoslik tarixida ança oldin paydo bölgan. V. fon Gumboldt tilni xalq ruhining taşqi körinişi deb bilgan va har bir til öz egasiga olamni öziga xos tarzda körsatişini ta'kidlagan edi [8]. XX asrning oxirgi çoragida tilşunoslikda antroposentrik paradigma kuçayib, tilni uni yaratgan va undan foydalanayotgan inson bilan birga örganiş odat tusiga kirdi. Lingvokulturologiya ana şu jarayonda, tilşunoslik va madaniyatşunoslik tutaşgan nuqtada vujudga keldi [12; 20].

Lingvokulturologiyaning markazida inson, til va madaniyat uçligi turadi. Inson madaniyatni til orqali özlaştiradi va keyingi avlodga yetkazadi. Til orqali qadriyatlar va dunyoqaraş ham uzatiladi. Tilda asrlar davomida töplangan ana şu madaniy axborotni aniqlaş va tavsiflaş lingvokulturologiyaning asosiy vazifasidir.

Fan rivojlangani sari uning içida turli yondaşuvlar paydo böldi. V.A. Maslovaning qayd etişiça, XX asrning 90-yillariga kelib Moskvada törtta lingvokulturologik maktab şakllandi [12]. Mazkur maqolaning maqsadi tört maktabning nazariy asoslarini aniqlaş,

ularni yagona mezonlar asosida soliştiriş va özbek lingvokulturologiyasining ular bilan qanday boğlanganini körsatişdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktablar asosçilarining asosiy asarlari [6; 10; 11; 13; 14] birlamçi manba sifatida olindi. Maktablarni tasniflaşda V.A. Maslovaning öquv qöllanmasiga [12], özbek tilşunosligidagi holatni yoritişda esa özbek olimlarining işlariga [16; 17; 19; 20; 21] tayanildi.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik va tarixiy-qiyosiy metodlardan foydalanildi. Maktablar tadqiqot obyekti, yondaşuv aspekti (diaxron yoki sinxron), tadqiqotçining til egasiga nisbatan pozitsiyasi va metodologik asosi böyiça soliştirildi.

ASOSIY QISM

Moskva lingvokulturologik maktablarining yuzaga kelişi

Moskva maktablarining şakllanişiga bir neça omil ta’sir körsatgan. 1970–1980-yillarda E.M. Vereşçagin va V.G. Kostomarov rus tilini çet elliklarga öqitiş ehtiyojidan kelib çiqib lingvostranovedeniye (lingvoyurtşunoslik) yönalişini asoslab berdi [5]. Ular söz bilan birga uning fon bilimlarini ham örgatiş kerakligini körsatdi. Şu davrda kognitiv tilşunoslik rivojlanib, «konsept» tuşunçasi ilmiy muomalaga kirdi.

V.A. Maslova bu davrda şakllangan maktablarni quyidagiça ajratadi [12]:

1. Yu.S. Stepanov maktabi;
2. N.D. Arutyunova maktabi;
3. V.N. Teliya maktabi;
4. V.V. Vorobyov va V.M. Şaklein maktabi.

Yu.S. Stepanov maktabi: madaniyat konstantalari

Yu.S. Stepanov maktabining maqsadi madaniyatning uzluksizligini, ya’ni uning asrlar oşa saqlanib kelayotgan tayanç tuşunçalarini diaxron aspektda tasvirlaşdir. Maktab vakillari turli davr matnlariga tilning faol egasi sifatida emas, taşqi kuzatuvçi sifatida

yondaşadi [12]. Metodologik jihatdan maktab E. Benvenistning hind-yevropa ijtimoiy terminlarini etimologik tahlil qiliş tajribasiga yaqin [1; 12].

Maktabning asosiy natijasi Stepanovning «Константы: Словарь русской культуры» (1997) luğatidir [13]. Unda rus madaniyatining tayanç tuşunçalari etimologiyasidan to badiiy va falsafiy matnlardagi talqinigaça kuzatiladi. Muallif konseptni göyo inson ongidagi madaniyat quyuqlaşmasi, madaniyatning insonning mental olamiga kirib boradigan şakli deb ta'riflaydi (*«сгусток культуры в сознании человека»*) [13, 40]. Konstanta esa madaniyatda uzoq vaqt davomida doimiy mavjud bölib kelgan konseptdir.

Stepanov maktabi tilni tarixiy taraqqiyoti davomida közdan keçiradi: til özgaradi, ba'zi birliklarini yöqotib, yangilarini oladi. Ingliz tili tarixini qadimgi, örta va yangi davrlarga ajratib örganganimizda ham şu yöldan boramiz. Masalan, qadimgi ingliz tilida *cniht* sözi «ösmir, xizmatkor» ma'nosini bildirgan. Örta asrlarda feodal munosabatlar şakllanişi bilan u «otliq jangçi, ritsar» ma'nosini oldi va bugungi *knight* söziga aylandi. Bu siljiş jamiyat tuzilişidagi özgarişni aks ettiradi. Ingliz tili ona tilimiz bölmagani uçun bunday tahlilda biz ham taşqi kuzatuvçi örnida turamiz.

Özbek tilida ham madaniyat konstantasi deyiş mumkin bölgan tuşunçalar bor. Qadimgi turkiy tildagi *qut* sözi «baxt, saodat, ilohiy marhamat» ma'nolarini anglatgan. Yusuf Xos Hojib 1069–1070-yillarda yozgan «Qutadğu bilig» asarining nomi ham şu söz bilan boğliq bölib, «baxtga eltuvçi bilim» deb tuşuniladi. Bugun u *qut-baraka*, *qutluğ*, *qutlamoq* sözlarida yaşab kelmoqda. Ming yillik tuşunçaning bugungi tabriklaş odatiga ulangani madaniyat uzluksizligini körsatadi.

N.D. Arutyunova maktabi: umummadaniy konseptlar

N.D. Arutyunova boşçiligidagi maktab turli davr va turli xalqlarga tegişli matnlardagi umummadaniy tuşunçalarni örganadi. Bu yerda ham tadqiqotçi tilning faol egasi emas, taşqi kuzatuvçi pozitsiyasida böladi [12]. Maktab faoliyati «Логический анализ языка» muammolar guruhi naşrlarida aks etgan. Şu turkumdagi «Культурные концепты» (1991) töplamida [10] madaniyat uçun ahamiyatli tuşunçalar turli tillar va matnlar asosida tahlil

qilingan. Keyinroq naşr etilgan «Понятие судьбы в контексте разных культур» (1994) töplami esa bitta konseptning turli xalqlar tafakkurida qanday talqin etilişini körsatib berdi [11].

Umummadaniy tuşunçalar köp madaniyatlarda mavjud, ammo har bir tilda özgaça ifodalanadi. Masalan, özbek tilida taqdir tuşunçasi *taqdir*, *qismat*, *peşona* sözlari bilan ifodalanadi; *peşonasiga yozilgani* iborasida u insonning peşonasiga bitib qöyilgan narsa sifatida tasavvur qilinadi. Rus tilida *судьба*, *доля*, *рок*, ingliz tilida *fate*, *destiny*, *lot* sözlari şu tuşunçaning turli qirralarini beradi.

Kattalarga hurmat körsatiş ham deyarli barça madaniyatlarda bor, biroq tilda har xil namoyon böladi [21]. Özbek tilida hurmat köplik şakli orqali ifodalanadi: kişi ota-onasiga ham «siz» deb murojaat qiladi, hurmatli şaxs haqida gapirganda fe'l köplikda qöllanadi (*dadam keldilar*). Rus tilida hurmat *вы* olmoşi va ism-otasining ismi bilan murojaatda, ingliz tilida esa *sir*, *madam* sözlari va *Could you…?* kabi muloyim söroq qurilmalarida körinadi.

V.N. Teliya maktabi: frazeologizmlar va til egasining refleksiyasi

V.N. Teliya maktabi frazeologizmlarni lingvokulturologik tahlil qiliş bilan tanilgan. Oldingi ikki maktabdan farqli ölaroq, Teliya va uning şogirdlari til birliklarini jonli til egasining refleksiyasi nuqtayi nazaridan örganadi, ya'ni madaniy semantikani til va madaniyat subyektining özi orqali aniqlaşga intiladi [12]. V.A. Maslova bu konsepsiyani A. Vejbitskaya qaraşlariga yaqin deb hisoblaydi [12]. Teliya tilni «içkaridan» tekşirişni taklif qiladi.

Teliya lingvokulturologiyani jonli milliy tilda mujassam bölgan moddiy madaniyat va mentalitetni örganuvçi fan sifatida belgilaydi [14, 216]. Uning nazariyasidagi asosiy tuşunçalardan biri madaniy konnotatsiyadir. Frazeologizmning obrazli asosi madaniyatdagi biror ramz, odat yoki stereotip bilan boğlanib, iboraga qöşimça baho ma'nosini beradi. Bu ğoya Teliya muharrirligidagi «Большой фразеологический словарь русского языка»da amalga oşirilgan: unda har bir iboraga madaniyatşunoslik izohi berilgan [2].

Teliya izdoşlari çoğiştirma tahlil orqali turli tillarda ma’nosi yaqin, ammo obrazi farqli iboralar borligini körsatgan. «Heç qaçon» ma’nosini özbek tilida *tuyaning dumi yerga tekkanda*, ingliz tilida *when pigs fly*, rus tilida *когда рак на горе свистнет* iboralari beradi. Obraz tanlovida xalqning turmuş tarzi körinadi. Turkiy xalqlar hayotida tuya muhim örin tutgan, şuning uçun uning kalta dumi ibora asosiga aylangan. Ingliz va boşqa Yevropa xalqlari xöjaligida esa çöçqa keng tarqalgan uy hayvoni bölgan. Özbek frazeologiyasining Ş. Rahmatullayev tomonidan işlab çiqilgan nazariy asoslari [18] bunday qiyoslarni özbek tili materialida davom ettirişga imkon beradi.

V.V. Vorobyov va V.M. Şaklein maktabi: qiyosiy lingvokulturologiya

Törtinçi maktab Rossiya xalqlar döstligi universitetida (RUDN) şakllangan. Maktab asosçilari V.V. Vorobyov va V.M. Şaklein E.M. Vereşçagin hamda V.G. Kostomarov asoslagan lingvostranovedeniye ta’limotini davom ettirib, uni nazariy jihatdan kengaytirdi [5; 12]. Maktab amaliy yönalişi bilan ajralib turadi: unga rus tilini çet elliklarga öqitiş tajribasi asos bölgan.

V.V. Vorobyov lingvokulturologiyani madaniyat va tilning özaro boğliqligi hamda ta’sirini til faoliyati jarayonida örganuvçi, sintezlovçi tipdagi kompleks fan deb ta’riflaydi [6]. U lingvokulturologik tahlilning asosiy birligi sifatida *lingvokulturema*ni taklif etdi. Lingvokulturema til belgisi va uning ortida turgan madaniy mazmunni bir butun holda öz içiga oladi. Bunday birlik söz, söz birikmasi yoki butun bir matn parçasi bölişi mumkin [6; 7].

Maktab vakillari ekvivalentsiz til birliklariga alohida e’tibor qaratadi. Ular bitta madaniyatga xos bölib, xalqning tarixiy tajribasini özida jamlaydi (kumulyativ vazifa). Özbek tilidagi *mahalla*, *sumalak*, *beşik töyi*, *kelin salom* kabi söz va birikmalar bunga misol böla oladi. Ularni boşqa tilga bir söz bilan ögirib bölmaydi, tarjimon izoh yoki transliteratsiyaga murojaat qiladi. Maktab vakillari fikriça, tillar farqi madaniyatlar farqidan kelib çiqadi.

V.M. Şaklein maktab doirasida lingvokulturologik vaziyat (*лингвокультурная ситуация*) tuşunçasini işlab çiqdi. Olim uning ikki asosiy belgisini ajratadi: vaqt bilan

boğliqligi hamda bir emas, bir neçta ijtimoiy guruh, til va madaniyatni qamrab olişi [15]. Bu yondaşuv köp tilli Özbekiston şaroitini örganişda ham qöl keladi.

Maktablarning qiyosiy tahlili

1-jadval. Moskva lingvokulturologik maktablarining qiyosiy tavsifi

Maktab	**Tadqiqot obyekti**	**Yondaşuv aspekti**	**Tadqiqotçi pozitsiyasi**	**Metodologik tayanç**
Yu.S. Stepanov	Madaniyat konstantalari	Diaxron	Taşqi kuzatuvçi	E. Benvenistning etimologik tahlil usuli
N.D. Arutyunova	Ummmadaniy konseptlar	Davrlar va madaniyatlar kesimida	Taşqi kuzatuvçi	Tilning mantiqiy-konseptual tahlili
V.N. Teliya	Frazeologizmlar, madaniy konnotatsiya	Sinxron	Faol til egasi (refleksiya)	Frazeologik semantika, A. Vejbitskaya qaraşlari
V.V. Vorobyov, V.M. Şaklein	Lingvokulturema, ekvivalentsiz birliklar	Sinxron, qiyosiy	Öz va özga madaniyat oraliğida	E.M. Vereşçagin, V.G. Kostomarov lingvostranovedeniyesi

Jadvaldan körinadiki, maktablarni ikki mezon böyiça guruhlaş mumkin. Birinçisi vaqt öqi. Stepanov maktabi madaniyatni tarixiy rivojida, diaxron kesimda örgansa, Teliya hamda Vorobyov va Şaklein maktablari tilning bugungi holatiga, ya’ni sinxron kesimga tayanadi. Arutyunova maktabi oraliq örinda: u turli davr matnlaridan foydalansa-da, tuşunçaning turli madaniyatlardagi talqiniga e’tibor qaratadi.

Ikkinçi mezon tadqiqotçining til egasiga munosabatidir. Stepanov va Arutyunova maktablarida tadqiqotçi madaniyatni çetdan, neytral kuzatuvçi sifatida tasvirlaydi. Teliya maktabi esa til egasining ongidagi baho va tasavvurlarni asosiy manba deb biladi. Vorobyov va Şaklein maktabida bu ikki pozitsiya qöşiladi: çet ellik öquvçi uçun rus madaniyati «özga» madaniyat, öqituvçi esa uni şu madaniyat içidan tuşuntiradi.

Barça maktablar antroposentrik paradigmaga tayanadi va bir-birini inkor etmaydi: bitta tadqiqotda konsept etimologiyasini Stepanov usulida, frazeologik ifodasini Teliya usulida, boşqa tildagi muqobilidan farqini Vorobyov usulida örganiş mumkin.

Moskvadan taşqaridagi yönalişlar va özbek lingvokulturologiyasi

Lingvokulturologiya Moskva bilan çeklanib qolmadi. Volgograd maktabi (V.I. Karasik, G.G. Slyşkin va boşqalar) lingvokulturologik konseptni diskurs va til şaxsi tuşunçalari bilan boğlab örganadi [9]. A. Vejbitskaya semantik primitivlar, ya’ni barça tillardagi eng sodda ma’nolar yordamida madaniyatning kalit sözlarini tavsiflaşni taklif qildi va rus madaniyati uçun *душа*, *судьба*, *тоска* sözlarini ana şunday kalit sözlar deb hisobladi [3; 4].

Özbek tilşunosligida lingvokulturologik tadqiqotlar asosan XXI asrda faollaşdi. N. Mahmudov olamning lisoniy manzarasi masalasini özbek tili materiali asosida körib çiqib, til birliklarida xalqning voqelikni idrok etiş tarzi muhrlanganini körsatdi [16]. A. Mamatovning zamonaviy lingvistikaga bağişlangan darsligi [17] va Ş. Usmanovaning «Lingvokulturologiya» darsligi [20] soha nazariyasini özbek öquvçisiga taniştirdi. Fan tarixi va hurmat kategoriyasining ifodalanişiga oid izlanişlar ham olib borilmoqda [19; 21].

Özbek tadqiqotçilarining köpçilik işlari özbek tilini ingliz yoki rus tili bilan çoğiştirişga asoslangani e’tiborga loyiq. Bu jihatdan ular Teliyaning frazeologik tahlil usuliga hamda Vorobyov va Şaklein maktabining qiyosiy yondaşuviga yaqin turadi. Özbek madaniyatining tayanç tuşunçalarini qadimgi turkiy yodgorliklardan bugungaça kuzatadigan diaxron işlar esa hali kam. *Qut* sözi misoli bunday tadqiqotlar uçun material yetarli ekanini körsatadi.

XULOSA

Moskvada şakllangan tört maktab bir fan doirasida turli tadqiqot yöllari borligini körsatdi. Yu.S. Stepanov va N.D. Arutyunova maktablari madaniyatni taşqi kuzatuvçi nuqtayi nazaridan, birinçisi konstantalar tarixi, ikkinçisi umummadaniy konseptlar orqali örganadi. V.N. Teliya maktabi frazeologizmlardagi madaniy konnotatsiyani til egasining refleksiyasi orqali, V.V. Vorobyov va V.M. Şaklein maktabi esa lingvokulturema va ekvivalentsiz birliklarni qiyosiy jihatdan tadqiq etadi.

Qiyosiy tahlil şuni körsatdiki, maktablar örtasidagi farq ikki mezonda, ya'ni yondaşuv aspekti va tadqiqotçining pozitsiyasida eng aniq körinadi. Özbek lingvokulturologiyasi hozirça köproq qiyosiy yönalişda rivojlanmoqda. Özbek madaniyati konstantalarini diaxron aspektda örganiş esa kelgusi tadqiqotlar uçun dolzarb vazifa bölib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бенвенист Э. Словарь индоевропейских социальных терминов. – М.: Прогресс-Универс, 1995.
2. Большой фразеологический словарь русского языка. Значение. Употребление. Культурологический комментарий / под ред. В.Н. Телия. – М.: АСТ-ПРЕСС, 2008. – 782 с.
3. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996.
4. Вежбицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов. – М.: Языки славянской культуры, 2001.
5. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – М.: Русский язык, 1990. – 246 с.
6. Воробьёв В.В. Лингвокультурология (теория и методы). – М.: Изд-во РУДН, 1997.
7. Воробьёв В.В. Лингвокультурология: монография. – М.: РУДН, 2008. – 336 с.
8. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984.
9. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.
10. Логический анализ языка. Культурные концепты / отв. ред. Н.Д. Арутюнова. –

M.: Наука, 1991.

11. Логический анализ языка. Понятие судьбы в контексте разных культур / отв. ред. Н.Д. Арутюнова. – М.: Наука, 1994.

12. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие. – М.: Академия, 2001. – 208 с.

13. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Языки русской культуры, 1997. – 824 с.

14. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.

15. Шаклеин В.М. Лингвокультурная ситуация в современной России: монография. – М.: Флинта: Наука, 2010. – 152 с.

16. Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2015. – №3. – B. 3–12.

17. Mamatov A. Zamonaviy lingvistika: darslik. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020.

18. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. – Toshkent, 1966.

19. To‘lanboyeva G., Yusupova S. Lingvokulturologiya o‘rganilish tarixi // Science and innovation. – 2022. – Vol. 1, B6. – B. 540–543.

20. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya: darslik. – Toshkent, 2019. – 248 b.

21. Yusupova S. Ижтимоий гуруҳларда ҳурмат категорияси ифодалаш // Science and innovation. – 2022. – Vol. 1, B5. – B. 350–352.